


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE PROBLEM OF HOMONYMY IN CHINESE IN KURAIISI'S DICTIONARY***Umida Khodzhakbarovna Mavlyanova**PhD, Associate Professor**TSUOS**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Japan, China, T.Kuraishi, dictionary, homonymy, vocabulary, phonetics, tone, hieroglyph, sound.

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: The given article is dedicated to homonyms in Chinese language and in dictionary of Kuraishi, which was created by Japanese professor T. Kuraishi. In general linguistics, method of the study of homonyms with dictionaries is widely used. The study material of quantitative composition and character of homonyms was dictionary "Ivanami Tu: gokuo ziten" – phonetic Chinese-Japanese dictionary, released by publishing office "Ivanami" in Tokio in 1972, with overall quantity of 37 thousand words. In the article, characteristics of the dictionary is given in details and the fact that it can be used as a study material in researches about Chinese linguistics is taken into account.

XITOIY TILIDAGI OMONIMIYA MASALASI KURAIISI LUG‘ATIDA*Umida Xodjakbarovna Mavlyanova**PhD, dotsent**TDSHU**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: Yaponiya, Xitoy, T. Kuraishi, lug‘at, omonimiya, leksika, fonetika, ton (ohang), ieroglif, tovush.

Annotatsiya: Mazkur maqola qisman xitoy tilida omonimiya tushunchasi va yapon tilshunos-sinologi, Yaponiyada xitoy tilini o‘rganish bo‘yicha ilmiy jamiyat raisi, professor T. Kuraishi boshchiligidagi 60ta tilshunoslar kollektivi tomonidan yaratilgan "Kuraishi lug‘ati"ga bag‘ishlanadi. Ma‘lumki, umumiy tilshunoslikda lug‘atlar asosida omonimiyani o‘rganish metodikasi keng tatbiq qilinadi. Bu lug‘at hozirgi zamon xitoy tilida omonimlarning miqdor tarkibi va xosligini

tadqiq qilish uchun Tokioda 1972-yilda “Ivanami” nashriyoti tomonidan bosib chiqarilgan bo‘lib, 37 ming so‘zlik “Ivanami Tyu: gokugo dziten” – xitoy-yapon fonetik lug‘ati material sifatida xizmat qiladi. Maqolada lug‘at tavsifi keng yoritilgan bo‘lib, ko‘rsatilgan grammatik ma‘lumotlar tufayli mazkur lug‘atdan xitoy tili so‘zlari bo‘yicha turli tadqiqotlarda material sifatida foydalanish mumkin.

ПРОБЛЕМА ОМОНИМИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ В СЛОВАРЕ КУРАИСИ

Умида Ходжакбаровна Мавлянова

Канд. наук., доцент

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Япония, Китай, Т.Кураиси, словарь, омонимия, лексика, фонетика, тон, иероглиф, звук.

Аннотация: Данная статья посвящается омонимии в китайском языке и словаре Кураиси, который был создан японским профессором Т. Кураиси. В общем Языкознании широко применяется методика изучения омонимии на материале словарей. Материалом для исследования количественного состава и характера омонимии послужил словарь “Иванами Тю: гокуго дзитэн”-фонетический китайско-японский словарь, выпущенный издательством “Иванами” в Токио в 1972 году, объемом 37.тыс.слов. В статье подробно даётся характеристика данного словаря и учитывается мнение, что словарь может быть использован как материал в различных исследованиях по слову китайского языка.

KIRISH

Xitoy tiliga xos bo‘lgan so‘zlar va ieroglifik yozuv Yaponiyaga mil.4-5 asrlarida kirib kela boshladi. Xitoy va yapon tillari uslubiy tuzilish jihatdan farq qilganligidan ieroglifik matnlarni o‘qish ancha qiyin bo‘lgan. Shunday bo‘lsa ham yaponlarning dastlabki yozma yodgorligi – “Kodziki”(afsona va rivoyatlar to‘plami, 712y) xitoy ierogliflari va xitoy tili grammatikasi asosida yozilgan. Keyinchalik ierogliflar bilan bir qatorda ularning xitoycha o‘qilishi “on” ham muayyan fonetik o‘zgarishlarga uchragan holda o‘zlashtirildi. Undan so‘ng ierogliflarning ma‘no jihatdan mos keladigan yaponcha o‘qilish shakli “kun” paydo bo‘ldi. Ierogliflarning fonetik qo‘llanilishi milliy yozuvning bo‘lishiga imkon yaratdi. Tarraqqiyot natijasida xitoy tilidan yapon

tiliga kirib kelgan soʻzlarning ortishi ikki tilning leksikografiyasiga shiddatli taʼsir koʻrsatdi. Bu taʼsir omonimiya masalasini ham chetlab oʻtgani yoʻq.

Omonimiya masalasi nafaqat tilning asosiy birligi boʻlmish soʻzning chegaralarini belgilash bilan bogʻliq muhim nazariy masala, balki amaliy leksikografiyaning eng murakkab masalalaridan biri.

ASOSIY QISM

Omonimiya hodisasining tildagi ahamiyati, oʻrni va roli haqida turli nuqtai nazarlar mavjud. Ayrim tilshunoslar omonimlarning hosil boʻlishi – bu tilning lugʻaviy tarkibini boyitish, boshqalari esa – omonimiyani tilning “halokatli yarasi” deb hisoblaydi. A. A. Reformatskiy, A. N. Gvozdev va boshqa qator tilshunoslar omonimiyani salbiy hodisa, “tushunishga toʻsiqlik”, “tilning nuqsoni” sifatida koʻrishadi. Boshqa olimlar, masalan, L. A. Bulaxovskiy, O. S. Axmanova, R. A. Budagovlar ayrim holatlarda omonimiyani nutq va matnni tushunishda qiyinchilik tugʻdirishini eʼtiborga olishsa ham, bu hodisani “gʻayritabiiy” deb hisoblamaydilar[1].

Omonimiya masalasini oʻrganishda tadqiqotchilar ham ona tili materialalariga, ham xorijiy tillarga murojaat qiladi. Umumiy tilshunoslikda omonimiya hodisasi masalasiga asosan toʻrtta yondashuv ajratiladi va tegishli tarzda “omonim” tushunchasi boʻyicha toʻrtta asosiy nuqtai nazar mavjud. Birinchi nuqtai nazarga koʻra, omonimlar – bu bir xil fonetik shakl (koʻrinish)dagi, biroq grafik yozilishidan qatʼiy nazar, har xil maʼnoga ega soʻzlar. Ushbu fikrga mahalliy va xorijiy tilshunoslarning katta guruhi qoʻshiladi, shular jumlasidan, V. V. Vinogradov, O. S. Axmanova, L. A. Bulaxovskiy, Ye. M. Galkina-Fedoruk, S. I. Kanonich, B. Trika, Sh. Balli, L. Blumfilʼd va boshqalar.

Tilshunoslar ikkinchi guruhining nuqtai nazariga koʻra, omonimlar bir xil talaffuz qilinib, xar xil maʼnolarni anglatga ham, albatta, bitta (bir xil) yozilishga ega boʻlishi kerak (V. V. Broun, I. V. Arnolʼd, N. M. Shanskiy, M. X. Axtyamov).

Boshqa bir qator olimlar omonimlarni bir xil talaffuz qilinadigan, lekin bir-biridan farq qiladigan maʼno va har xil yozilishga ega boʻlgan soʻzlarga kiritadi: X. Ogata va R. Inglott.

“Omonim” terminiga oid ushbu uchta tushunchaga qarama-qarshi nuqtai nazar V. Skitning “Etimologik lugʻati”da oʻz aksini topib, toshuvli emas, balki grafik oʻxshashlik printspidan kelib chiqib omonimga taʼrif beradi.

Biz birinchi guruh olimlarining “omonim” termini ostida bir xil talaffuz qilinadigan (bir xil tovushli) soʻzlar degan fikriga qoʻshilamiz. Demak, mazkur tadqiqotda omonimlar deganda bitta tovushli ifodalanishga, ammo turli maʼnolarga ega soʻzlar tushuniladi.

Maʼlumki, xitoy tilshunosligida ham omonimlar tushunchasiga turli nuqtai nazarlar mavjud. Shu kunga qadar xitoy olimlari omonimiya hodisasi haqida, shuningdek, omonim terminiga aniq taʼrif berishda yagona bir fikrga kelishmadi. Fikrlarning biriga koʻra, xitoy tilida omonimlar – ton

(ohang) e'tiborga olinmagan holda bir xil talaffuz (tovushli ifodalanish)ga va bir-biridan farqli bo'lgan ma'noga ega so'zlar tushuniladi. Bu tushunchadan kelib chiqib, ton (ohang) bo'yicha farqlanadigan so'zlar omonimlar deb ataladi:

1. 妈 mā – ona; 2. 麻 má – kenaf (kanop);
3. 马 mǎ – ot (yilqi); 4. 骂 mà – urushmoq, so'kinmoq;

Biroq, bunday nuqtai nazar to'la haqli emas, chunki A. A. Dragunov va Ye. I. Dragunovalarning ta'kidlashicha, "...so'zning bir qismi (morfema) sifatida namoyon bo'la oladigan u yoki bu ma'noga ega minimal fonetik birlik nutqning alohida tovushi (fonema) emas, balki ton (ohang)li bo'g'in – sillabema deb tushuniladi"[2]. Xitoy tilida ton (ohang) so'z yoki morfemaning fonetik qobig'i (ustki qoplami)ning ajralmas qismi hisoblanadi va ma'no farqlovchi rolini bajaradi. Shuning uchun omonimlar deganda ham talaffuz (tovush) bo'yicha, ham ton (ohang) bo'yicha bir-biriga mos keladigan so'zlar tushuniladi (bu nuqtai nazarning tarafdorlari xitoy tilshunoslari Chjou Szumo, Lyu Shusin' va boshqalar)[3].

Ma'lumki, hozirgi zamon xitoy ieroglifik yozuvida har bir belgi – ieroglif so'z yoki uning minimal ma'noga ega qismi – morfemani yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun omonimiya masalasini o'rganishda, N. I. Fel'dman ta'kidiga ko'ra, xitoy tilidagi so'zga, uning ieroglifik yozuvi mavjud bo'lishiga qaramay, har qanday tildagi so'zlarga kabi yondashish kerak[4]. Shunday qilib, xitoy tilidagi omonimlarga quyidagicha ta'rif berish mumkin: omonimlar – bir xil tovushli ohang (shu jumladan, ton ham), ammo ieroglifik yozilishidan qat'iy nazar har xil ma'noga ega so'zlar. Masalan, bunday so'zlar jumlasiga quyidagi juftliklar kiradi:

1. 花 huā – gul; 2. 吉利 jīlì – baxtli, omadli;

花 huā – sarflamoq 极力 jīlì – har qancha, bor kuchi bilan

Ma'lumki, olimlar omonimlar va polisemantik so'zlarning o'rtasidagi farqni aniqlash uchun ko'pgina me'yorlarni, xususan, turli so'z hosil qiluvchi qatorlar, paradigmatlar, boshqa leksik guruhlar bilan bog'liqlik (sinonimlar, antonimlarni saralash), sintaktik munosabatlar (distributiv usul), boshqaruvdagi farqlar (fe'llarda) kabilarni taklif qilishadi.

Xitoy tili va tipologiya bo'yicha o'xshash va farqli barcha tillarga xos bo'lgan omonimiya hodisasi tilshunos-sinologlar va boshqa tillar mutaxassislari e'tiborini o'ziga tortadi. Xitoy tilshunosligida omonimiya masalasiga alohida e'tibor 50-yillarda yuzaga kelib, xitoy ieroglifik yozuvini isloh qilish – ieroglifik yozuvini fonetik yozuvi bilan o'zgartirish masalasi bilan bog'liq bo'lgan. Xitoy olimlarining fikriga ko'ra, bunday o'tish katta qiyinchiliklar, ulardan biri – omonimiya bilan bog'liq edi. Xitoyda 50-yillarda vaqtli matbuot sahifalarida omonimiya masalasi keng yoritila boshladi va unga bag'ishlangan bahs-munozaralarda Chjou Yuguan, Bo Xan, Chjou Yaoven, To Mu, Sao Denfan, Chjan Shilu kabi tilshunolar faol ishtirok etdilar.

Bahs-munozaralar davomida quyidagi masalalar ko'tarilgan edi: 1) "omonim" tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash; 2) omonimiya va polisemiya o'rtasidagi chegarani aniqlash; 3) omonimlarni tasniflash; 4) omonimlar manbalari; 5) omonimiyani bartaraf etish yo'llari; 6) ismlar va geografik nomlanishlar omonimiyasi. Ko'tarilgan masalalarning aksariyati hanuzgacha yechimi topmagan va ayni vaqtda o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Xitoy tilida grammatik omonimiyadan farqli ravishda (S. B. Yankiver va V. I. Gorelovlarning tadqiqotlari) leksik omonimiya tadqiqotlarning mustaqil ob'ekti sifatida hali ham o'rganilmagan[5].

Umumiy tilshunoslikda lug'atlar asosida omonimiyani o'rganish metodikasi keng tatbiq qilinadi. Hozirgi zamon xitoy tilida omonimlarning miqdor tarkibi va xosligini tadqiq qilish uchun Tokioda 1972 yilda (birinchi nashri 1963 yilda) "Ivanami" nashriyoti tomonidan bosib chiqarilgan 37 ming so'zlik "Ivanami Tyu: gokugo dziten" – xitoy-yapon fonetik lug'ati material sifatida xizmat qiladi. Lug'at xitoy tilini o'rganish bo'yicha ilmiy jamiyat raisi, yetakchi yapon tilshunos-sinologi T. Kuraisi boshchiligidagi 60 ta tilshunoslarning kollektiv mehnati hisoblanadi.

Kuraisi lug'ati (keyinchalik bu lug'at shunday nomlanadi) 10 ta bo'limdan tashkil topgan: 1) muqaddima, 2) kirish, 3) lug'at matni, 4) xitoy va xitoycha bo'lmagan atoqli otlar ro'yxati, 5) ieroglifik ko'rsatkich, 6) semantik ko'rsatkich, 7) qarindoshlik munosabatlari jadvallari, 8) o'lchov va vazn jadvallari, 9) xitoy tili bo'g'inlari jadvallari, 10) xotima.

Kirish so'zida mualliflar lug'atning mazmun-mohiyati va uning manbalarini ko'rsatib o'tadilar. Xususan, manbalar sifatida quyidagi ishlar olingan: Lu Chjiveyning "北京话单音词词汇" (Pekin shevasining bir tarkibli so'zlar lug'ati), yozuv islohoti bo'yicha xitoy qo'mitasi qoshidagi leksikologiya bo'yicha guruh tomonidan nashr qilingan "汉语拼音词汇" (Xitoy tilining fonetik lug'ati). Bundan tashqari, mazkur lug'atni tuzishda hozirgi zamon xitoy yozuvchisi Lao Shening ba'zi asarlaridagi materiallari hamda Tokio universiteti o'qituvchisi Li Boning og'zaki leksika bo'yicha to'plagan materiallaridan foydalanildi[6].

Kirish qismida mualliflar hozirgi zamon xitoy tilining fonetikasi, grammatikasi va leksikasi bo'yicha ma'lumotlar keltiradi. "Fonetika" bo'limida lug'at tarkibida kiritilgan so'zlarga ta'rif beriladi. Ushbu qismda xitoy tilidagi so'zning grammatik tabiyati (mohiyati) masalalari, shuningdek, so'zning komponentlarini ajratib olish, ya'ni so'z va morfemaning, so'z va so'z birikmasining farqlanishi kabi muammolarga bag'ishlanadi. Mazkur bo'limda mualliflar tomonidan ajratilgan 11 ta so'z turkumlariga tegishli bo'lgan so'zlarning ayrim xususiyatlari haqida ma'lumotlar beriladi. Shu yerning o'zida mualliflar so'zlarning 11 ta turli yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanishi sabablariga izoh berib o'tadi.

"Grammatika" bo'limida xitoy tilining sintaksisi bo'yicha qisqa sharh beriladi. Bu yerda xitoy tilidagi gapda ishtirok etgan so'zlarning o'zaro bog'lanish usullari ko'rsatib o'tiladi va gap

bo'laklariga tavsif beriladi. Shuningdek, modallik va tuzilish bo'yicha gaplarning tasnifi keltiriladi.

Ushbu lug'at tadqiqot materiali sifatida tanlangani bejiz emas. Birinchidan, bu lug'at – fonetik lug'at bo'lib, u yerdagi so'zlar Xitoyda qabul qilingan alifboga muvofiq joylashtirilgan va tonlar ko'rsatkichi bilan ta'minlangan. Bularning hammasi omonimlarni topish va aniqlashni osonlashtiradi. Ikkinchidan, bu lug'atda faqat hozirgi zamon xitoy tilining leksikasini o'z ichiga qiladi. S. X. Ioffening ta'kidlashicha, "... hozirgi vaqtda xitoy leksikografiyasida bu eng to'liq va eng qiziqarli lug'at", chunki, dastavval, unda "tadqiqot ob'ekti sifatida butun xitoy tili emas (birinchi yodgorliklardan to bugungi kungacha), balki zamonaviy xitoy tili tanlangan"[7]. Uchinchidan, ushbu lug'at qadimgi xitoy leksikografik an'anasiga ko'ra ierogliflar bo'yicha emas, balki so'zlar va morfemalar bo'yicha tuzilgan. Lug'atdagi asosiy lug'aviy birlik sifatida so'zning tanlab olinishi, S. X. Ioffening fikriga ko'ra, xitoy leksikografiyasida namoyon bo'layotgan muayyan grammatik tendentsiya (yo'nalish)dan dalolat beradi. Mazkur lug'atning "grammatikalizatsiyalashuvi" (S. X. Ioffe taklif qilgan termin) so'z haqidagi grammatik ma'lumot berilishi, shuningdek, u yoki bu so'zni muayyan so'z turkumiga kiriti bilan bog'liq.

Lug'atdagi so'zga grammatik yondashuv yoki umuman olganda lug'atning "grammatikalizatsiyalashuvi" to'g'risida so'z yuritilganda, shuni aytish joizki, bu jarayonga so'zni ma'lum bir so'z turkumiga kiritish hisobiga emas, balki so'zning chegarasini, uning tabiatini aniqlash orqali erishiladi.

Lug'atning yana bir xususiyati so'zlarning chegaralarini aniqlash, ya'ni so'zga grammatik tavsif berish muammosi bilan bevosita bog'liq. Lug'at mualliflari so'z boshida xitoy tiliga polisillabik til sifatida ta'rif berib, undagi ikki tarkibli so'zlarning ustunligiga alohida urg'u berishadi, shu bilan birga qadimgi xitoy tilining monosillabik tusini ta'kidlab o'tishadi. Qadimgi va hozirgi zamon xitoy tillaridagi so'zga shunday ta'rif berilishi lug'atda belgilangan hozirgi xitoy tili leksikasida 11 ta leksik qatlam ajratilishi katta ahamiyatga ega.

1. Hozirgi og'zaki tilda uchrab turadigan va ba'zan sitatalarda (asardan keltirilgan parchalarda) qo'llanilgan qadimgi klassik asarlar leksikasi.

2. Hozirgi xitoy tilida ko'p foydalaniladigan qadimgi klassik asarlar leksikasi.

3. Keng qo'llanilmaydigan ilmiy va maxsus terminlar.

4. Badiiy adabiyot leksikasi.

5. Radio, televidenie va xalq oldida chiqishlardan qo'llaniladigan leksika.

6. Neytral leksika – keng tarqalgan og'zaki leksika. (Bu yerga mualliflar putunxua – hozirgi zamon milliy adabiy til lekikasini kiritgan).

7. Sodda so'zlashuv tili lekiskasi (mualliflar bular qatoriga "beytszinxua", ya'ni pekinliklar bilan so'zlashuvda qo'llaniladigan so'zlarni kiritgan).

8. Pekin atrofidagi shevalar, sleng va h.k.
9. Tabu, taqiqlash sifatida ishlatiladigan soʻzlar.
10. Soʻkish (haqoratli) soʻzlar.
11. Putunxuaga kirib kelgan va kam ishlatiladigan boshqa shevalardagi soʻzlar.

Ushbu leksik qatlamlarni oʻrganish ularning bir qatori hozirgi zamon tilshunoslari tomonidan ajratilgan funktsional uslublarga mos kelishidan dalolat beradi. Biroq, lugʻatda ajratilgan leksikaning boshqa qatlamini funktsional uslub qatlamlariga qiritib boʻlmaydi. Masalan, O. S. Axmanovning “Lingvistik terminlar lugʻati”da funktsional uslublar nomenklaturasida quyidagilar keltiriladi: ilmiy, kundalik-maishiy, kundalik-ish bilarmonlik, rasmiy-hujjatli, publitsistik, badiiy-belletristik[8]. Mazkur lugʻatda leksik qatlamlarning aynan shunday taqsimlanishi xitoy tilidagi soʻz kabi birlikni, xususan, omonimiya hodisasini tahlil qilishda katta ahamiyatga ega. Har bir soʻz lugʻatda tegishli uslubga taalluqliligi toʻgʻrisida belgi bilan ajratilgan va muayyan soʻzni faqat mazkur uslub doirasida oʻrganish lozim. Koʻrsatilgan uslubdan tashqarida mazkur birlik soʻz ham boʻlmasligi mumkin. Omonimlarni tahlil qilishda xitoy tilining aynan shu oʻzigi xosligini eʼtiborga olish kerak. Omonimiya qaysi uslublarda keng tarqalganini aniqlash uchun uslublarni hisobga olish ham oʻta muhim.

Xitoy tilining grammatik xususiyatlariga oid ayrim maʼlumotlar bilan bir qatorda xitoy tilidagi soʻz tushunchasi haqida taʼriflar keltirilgan. Masalan, muqaddimada lugʻatga quyidagilar jamlangan deb aytiladi: a) hozirgi zamon soʻzlari. b) eshitilganda tushunarli soʻzlar. Bundan tashqari taʼkidlanganki, agar gapda qoʻllanilgan qaysidir leksik birlik yozuvda lotin harflari bilan yozib olingan boʻlsa, lugʻatda u alohida bir soʻz sifatida eʼtirof etiladi.

Yuqorida keltirilgan maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, mualliflar soʻz sifatida aniqlangan birlikni ikkita meʼyordan kelib chiqib tavsiflaydi: eshutilishda soʻzning tushunarli boʻlishi va uning yozuvdagi “uzluksizligi” (yaxlitligi).

Taʼkidlanganidek, lugʻatdagi barcha soʻzlar soʻz turkumlari boʻyicha ajratilgan. Har bir soʻz muayyan leksik maʼnosiga ega boʻlib, gapda maʼlum bir vazifani bajaradi, shundan kelib chiqib, lugʻatda quyidagi soʻz turkumlari belgilangan: 1) 指示词 zhǐshìcí – koʻrsatish soʻzlar; 2) 数次 shùcì – son; 3) 量词 liàngcí – hisob soʻzlar; 4) 名词 míngcí – ot; 5) 动词 dòngcí – feʼl; 6) 形容词 xíngróngcí – sifat; 7) 副词 fùcí – ravishlar; 8) 介词 jiècí – predloglar (old koʻmakchi); 9) 助词 zhùcí – modal soʻzlar va yuklamalar; 10) 接词 jiēcí – bogʻlovchilar; 11) 问投词 wèntóucí – undalmalar.

Ushbu tasnifda yevropa anʼanasida nutq qismlari va yuklamalari deb nomlangan birliklar alohida soʻz turkumlari sifatida keltirilgan.

Umuman olganda, lugʻatda qabul qiligan mustaqil maʼnoli soʻzlar tasnifi xitoyshunoslikda mavjud boʻlgan soʻz turkumlari tasnifiga mos keladi. Asosiy farqlar yordamchi soʻzlar tasnifida

namoyon bo'ladi. Masalan, ko'rsatish so'zlar qatoriga olmoshlar kiritilgan. A. A. Dragunov olmoshlarni so'zlar-o'rinbosarlar deb nomlagan va ularni alohida umumiy leksik-grammatik toifa (kategoriya)ga, mustaqil so'z turkumiga kiritgan. Mazkur lug'atda hisob so'zlar ham mustaqil ma'noli so'zlar turkumiga ajratilgan. Mazkur turkumdagi so'zlar quyidagi mualliflarda yordamchi so'zlar hisoblanadi: V. I. Gorelov, Li Szin'si, Chjao Yuan'jen, shuningdek, "Xitoy tili" sharhi mualliflarida. A. A. Dragunov ishlarida hisob so'zlar otlar tarkibida alohida leksik-grammatik kategoriya sifatida o'rganiladi.

Lug'atning yana bitta afzalligi – bu undagi lug'at maqolasining tuzilishi. Kuraisi lug'ati har bir lug'at maqolasi tarkibida so'zning grammatik materialini yoki grammatik tavsifini qamrab oladi.

Lug'at maqolasi quyidagi tuzilishga ega: dastavval so'zning lotin transkripsiyasi so'ng uning ieroglifik yozilishi keltiriladi. Lug'atda 517 ta soddalashtirilgan ierogliflar qo'llanilib, shu bilan birga, qavs ichida ularning to'liq yozilishi ham ko'rsatilgan. Shuningdek, lug'atda ierogliflarning turli yozilishlari berilgan, variantlar orasida esa maxsus belgi qo'yilgan. Ieroglifik yozilishdan keyin qavs ichida so'z turkumi belgisi qo'yiladi, masalan, 动 dòng – (fe'l), 名 míng – (ot) va h.k., qavs ortidan esa, tegishli leksik qatlamning raqami ko'rsatiladi. Bundan keyin so'zning yapon tiliga o'girilgan tarjimasini, ortidan tasdiqlovchi misollar beriladi, chunki ular asosida lug'atga kiritilgan so'z haqidagi ma'lumotlarni tekshirish imkoniyati bo'ladi. Tasdiqlovchi misollar so'zlarning tahminan 25 foiziga keltirilgan bo'lib, asosan ular bir tarkibli so'zlarni tashkil qiladi[9].

Lug'atda son so'z turkumiga oid so'zlar ham berilib, sonlarning bir necha ma'nolari va shu ohangda ishlatiladigan boshqa so'zlar ham uchraydi. Maqolada biz birdan to'qqizgacha bo'lgan sonlarni ko'rib chiqishni lozim topdik. Masalan, "bir" soni xitoy tilda "一 yī" deb atalib, uning "bir", "bosh", "bir xil", "faqatgina" kabi 11 xil ma'nosi bor. "yī" so'zi bir bog'liq omonim so'zlarga misol keltiramiz:

一 yī -bir, 衣 yī- kiyim, 伊 yī –u («on» rus tilida), 医 yī-tabib va hokazo.

"Ikki" soni xitoy tiliga "二 èr" deb tarjima qilinadi va uning ohangdosh so'zlari ham mavjud. Masalan: 二 èr –ikki, 而 èr-shunda ham.

"Uch" soni "三 sān" deyiladi va ohangdosh so'zlarga ega. Masalan: 三 sān –uch, 彘 Sān-tukli, yungli.

"To'rt" soni xitoy tilida "四 sì-to'rt" deb tarjima qilinib, 寺 sì-buddaviy ehrom, 似 sì-go'yoki, xuddi, 祀 sì-qurbonlik qilmoq, 饲 sì-em-xashak, 嗣 sì-keyinchalik va hokazo kabi ma'nolari ham bor.

"Besh" soni "五 wǔ" deb tarjima qilinib, uning ham ohangdosh so'zlari mavjud. Masalan: 午 wǔ-tushdan so'ng, 武 wǔ –harbiy, 舞 wǔ-uyin, raqs, 捂 wǔ-yopmoq va boshqa so'zlar.

“Olti” soni “六” liùdeb tarjima qilinib, uning 溜 liù-oqim, 饷 liù-isitmoq, 遛 liù-aylanmoq, sayr qilmoq, 鸚 liù-muz ustida uchadigan konki kabi ma’nodosh omonim so‘zlari mavjud.

“Etti” soni xitoy tilida “七 qī” deb ataladi. Uning ham boshqa sonlar kabi ohangdosh so‘zlari bir qancha. Xitoy tilida 期 qī-muddat, 栖 qī-utirmoq, qishlamoq, 戚 qī- qarindosh-urug‘, 欺 qī-yolg‘on gapirmoq kabi o‘ndan ortiq ma’nodosh so‘zlari bor.

“Sakkiz” soni 八 bā deyiladi. Uning quyidagi ohangdosh omonim so‘zlari mavjud: 巴 bā-chanqamoq, 把 bā-ushlamoq, 疤 bā-chandiq, 笆 bā-o‘ram, to‘qim.

“To‘qqiz” soni 九 jiǔ deb tarjima qilinib, 久 jiǔ- ilgari, eski, 灸 jiǔ-kuydirish, 酒 jiǔ – may, sharob, 韭 jiǔ-piyoz degan ohangdosh so‘zlari mavjud.

Qo‘p tarkibli so‘zlarga tegishli maqolalar o‘z ichida shu so‘zlarning leksik birliklar sifatida barcha ma’nolarini qamrab olgan. Har bir ma’noning qarshisida so‘z turkumi belgisi, shuningdek, ushbu ma’noda kelgan so‘zning muayyan leksik qatlamiga taalluqliligi belgisi qo‘yilgan, keyin yapon tilidagi tarjimasi, so‘ng esa – so‘zning u yoki bu ma’noda qo‘llanilishiga misol keltirilgan. Lug‘atda bitta so‘z turkumi belgisi ostida har xil ma’nolar, shuningdek, har xil so‘z turkumlariga tegishli bo‘lgan ko‘p tarkibli so‘zlarning turli ma’nolari kiritilgan. Turli ma’nolar qarshisida nafaqat har xil so‘z turkumlariga ishora qiluvchi belgilar, balki leksik qatlamlarining har xil belgilari qo‘yilishi mumkin.

Bitta so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan so‘zning ikki va undan ortiq ma’nolari aniqlanganda, lug‘atda u bitta leksik birligi sifatida o‘rganiladi. Agarda bir so‘zning har xil so‘z turkumlariga tegishli bo‘lgan bir nechta ma’nolari aniqlanganda, lug‘atda ular konversiya bo‘yicha hosil bo‘lgan har xil so‘zlarning ma’nolari sifatida ko‘rib chiqiladi.

Lug‘at mualliflari 讨论 tāolùn (“muhokama qilmoq”, “muhokama”) turdagi so‘zning turli grammatik ma’nolarini bitta lug‘at maqolasiga joylashtirib, shu ma’nolarni bitta so‘zning tub ma’nolari deb hisoblashadi. Har xil so‘z turkumlari belgisiga ega ushbu ikkita ma’no mualliflar tomonidan nutqdagi qo‘llanilish holati emas, balki til holati sifatida o‘rganishadi. So‘z o‘zining ma’nosini okkazional o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan holatlarni mualliflar alohida farqlab olishadi. Okkazional ravishda boshqa so‘z turkumi vazifasida keladigan so‘zlar uchun “+”maxsus belgisi kiritilib, u misoldan oldin qo‘yiladi va mazkur so‘z o‘ziga xos bo‘lmagan vazifasida qo‘llanilganiga ishora qiladi. Misol uchun, quyidagicha lug‘at maqolasi: 讨论 tāolùn turdagi so‘zlarni o‘z ichiga olgan lug‘at maqolalari yuqorida keltirilgan maqolalardan tubdan farq qiladi, masalan, qiyoslang: 报告 bàogào (动) (我把这件事报告给他 wǒbǎzhèjiànshìbàogào gěitā) (men unga bu ish haqida xabar berdim; (名) (作了报告 zuòlebàogào) (ma’ruza, chiqish qildi).

XULOSA

Yuqoridagi bayondan xulosa qilib aytish mumkinki, ko'rsatilgan grammatik ma'lumotlar tufayli mazkur lug'atdan xitoy tili so'zlari va sonlari bo'yicha turli tadqiqotlarda material sifatida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Дискуссия по вопросам омонимии: Лексикографический сборник.—М.,1960.- Вкп.4.-С.35-92.
2. Драгунов А.А. и Драгунова Е.И. Структура слова в китайском национальном языке // Советское востоковедение. – М., 1955. – № 1. – С. 58.
3. Чжоу Цзумо. Ханьюй цихуй цзянхуа (Лекции по лексике китайского языка).-Пекин, 2002г. Лю ШуСинь. Ханьюй мяосе цыхуйсюэ (Дескриптивная лексикология китайского языка).-Пекин, 2000г.
4. Н.И.Фельдмен “Окказиональнке слова и лексикография”.-М.,1957г//Вопросы языкознания-№12.-С67
5. Янкивер С.Б. Грамматическая омонимия в современном китайском литературном языке//Языки Китая и Юго-Восточной Азии .М.,1974г.
6. Лу Чживэй “北京话单音词词汇.北京 2002 年 .
7. Иоффе Х. О грамматической тенденции в лексикографии китайского языка // Страны и народы Востока. – М., 1971. – Вып. 11. – С. 216
8. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966. – С. 456.
9. Хаматова А.А.Омонимия в современном китайском языке.-М., Из-во Муравей.2006г.112стр.